
Tanlov g'olibi bo'lgan hunarmandga 44 million so'mlik zaruriy uskunalar topshirildi

Hunarmand tadbirkor Gulxumorxon Agzamova 10 yildirki, barcha turdagi sumkalari tayyorlash bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda 20 turga yaqin summalar tayyorlanib, viloyatimizdagi bozorlar hamda savdo do'konlariga yetkazib berilmoqda.

Kichik korxonada 10 nafarga yaqin ishchilar bor. Ishchilarga ishbay hisobida haq to'lanadi. Uy-ro'zg'or ishlari hamda farzandlar tarbiyasidan vaqt ajratgan ishchilar har oyda o'rtacha 2 mln. so'mga yaqin daromad topishmoqda. Gulxumorxon Agzamova tomonidan maktab o'quvchilariga ham hunarning sir-asrorlari o'rgatilmoqda.

Farg'ona vodiysida ayollarning innovasion g'oyalari va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Ayollar tashabbusi" dasturining "Tikuvchilik ishlab chiqarish" yo'nalishi bo'yicha tanlovda g'olib bo'lib, 44 mln. so'mlik zaruriy jihozlar ajratildi.

2023-09-18 11:30:21